




YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ


DAVRIYLIGI: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM 2018-2023



D.I. MENDELEEVNING
KIMYOVIY ELEMENTLAR
DAVRIY JADVALI



Относительная
атомная масса
(атомный вес)



	Actinoids			Periodic Table of Elements													
				Periodic Table of Elements													
				Periodic Table of Elements													
				Periodic Table of Elements													
Cr	24 Хром	Mn	25 Марганец	Fe	26 Железо	Co	27 Кобальт	Ni	28 Никель	Cu	29 Медь	Zn	30 Цинк	Al	13 Алум	Ge	14 Германий
Tc	42 Технеций	Ru	43 Рутений	Rh	44 Родий	Pd	45 Палладий	Ag	46 Серебро			N	49 Нидий	Sn	50 Олово	Sb	51 Сурьма
Re	74 Рений	Os	75 Оsmий	Ir	76 Иридий	Pt	77 Платина	Au	78 Золото				81 Ни	Pb	82 Свинец	Bi	83 Бисмут
Bh	106 Борий	Hs	107 Хасий	Mt	108 Мейтнерий	Ds	109 Дармштадтий	Rg	110 Рентгений	Cn	111 Копериций					At	112 Астатий
Ds	60 Лодимий	Pm	61 Прометий	Sm	62 Самарий	Eu	63 Европий	Gd	64 Гадолиний	Tb	65 Тербий	Dy	66 Диспрозий	Ho	67 Нолмий	Er	68 Эрбий
J	92 Уран	Np	93 Нептуний	Pu	94 Плутоний	Am	95 Америций	Cm	96 Кюрий	Bk	97 Берклий	Cf	98 Калифорний	Es	99 Энштейний	Fm	100 Фермий
																Md	101 Менделевий
																No	102 Нобелий
																Lr	103 Лауренций

TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR:1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQT.uz
WWW.CONFERENCES.UZ



FEVRAL
№49

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
16-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-16**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-16**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 49-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Akmuradov Baxtiyor Uralovich	
ELEKTRON MATNGA DASTLABKI ISHLOV BERISHNING KLASSIK MODELI.....	7
2. Axmedova Xusniya Xusanovna	
MATNNI ELEKTRON TARZDA IFODALASH TEXNOLOGIYALARI.....	9
3. Djumabayev Dilmurad Kutlimurotovich, Xusniddinov Faxriddin Shamsiddinovich, Do'stmurodov Eldor Eshbobo o'g'li, Valixonov Nuriddin Kamoliddin o'g'li	
SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH	11
4. Rakhmonov Ikromjon Usmonovich, Kurbonov Nurbek Nurullo ugli, Saburov Salamat Sarsenbaevich	
DEVELOPMENT STAGES OF A SIMULATOR BASED ON A PROGRAMMABLE LOGIC CONTROLLER	14
5. Rakhmonov Ikromjon Usmonovich, Niyozov Numon Nizomiddinovich, Saburov Salamat Sarsenbaevich	
FORMATION OF THE INITIAL DATABASE TO BRING THE "BASICS OF ELECTRICITY SUPPLY" SCIENCE LABORATORIES TO THE STATUS OF A VR LABORATORY	16
6. Djumbabayev Dilmurad Kutlimuratovich, Valikhanov Nuriddin Kamoliddin o'g'li	
CHALLENGES IN DESIGNING NANOROBOTS	18
7. Abdusamatova Shaxodat Xoziakbar qizi, Mannonov Asliddin Akbar o`g'li	
KIBER HUJUMLAR VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	20
8. D.B. Bobojonova , R.P. Babaxodjayev	
URGANCH SHAXRI TURAR JOY BINOLARINI ISSIQLIK BILAN TAMINLASH JARAYONINING TAHLILI	22



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ELEKTRON MATNGA DASTLABKI ISHLOV BERISHNING KLASSIK MODELI

Akmuradov Baxtiyor Uralovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot

Texnologiyalari Universiteti dotsenti, PhD.

Telefon:+998(97) 890 47 57


b.u.akmuradov@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda kelib hisoblash mashinalari imkoniyatining tobora kengayib borishi natijasida elektron matn bilan ishlash, uni shakl va ma’no jihatidan tahlil qilishni amalga oshiruvchi zamonaviy texnologiyalar soni ham ortib bormoqda. Ushbu ishda matnga dastlabki ishlov berishni tashkil etishning eng ommalashgan klassik modeli ko‘rib chiqilgan. Modelda mavjud bosqichlarning amalga oshirilish tartibi va xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: elektron matn, nutq, model, so‘z, semantika, sintaksis.

So‘nggi yillarda zamonaviy texnologylarning rivojlanishi bilan tabiiy tilni qayta ishlash sohasida ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishildi. Biroq, mavjud vositalardan foydalanadigan shaxslarning til bo‘yicha bilim darajasining turli xilligi va texnologiyalarning murakkabligiga bog‘liq ravishda axborotni kiritish va chiqarishda ko‘plab muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, elektron matn ko‘rinishidagi axborotni shakllantirishda so‘zlarni xatoliklar bilan kiritish yoki tizim orqali so‘zlarni xato aniqlanishi oqibatida matndagi axborotning to‘liqligi va aniqligiga putur yetishi mumkin. Bunday hollarda elektron matnga avtomatik ishlov berish tizimlari keng qo‘llaniladi.

Elektron matn deyilganda yozma nutqda qo‘llaniladigan alifbo harflarining hisoblash mashinalarida elektron shaklda ifodalash orqali shakllantirilgan matnga aytildi. Elektron matnni qayta ishslashning barcha zamonaviy tizimlarida so‘zlearning eng oddiy ko‘rinishlarini qidirishdan tortib, mashina tarjimasigacha, tabiiy tilga ishlov berishning quyidagi asosiy bosqichlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Matnga dastlabki ishlov berishning klassik modeli

Tizimning kiruvchi obyekti belgilar ketma-ketligi bo‘lib, birinchi bosqichda matn alohida so‘z va gaplarga bo‘linadi. Shu bilan birga, sonlar, formulalar, geometrik obyektlar, shartli belgilar va tinish belgilari aniqlanadi va sinflanadi.

Keyingi bosqichda alohida so‘zlarga ishlov berish amalga oshiriladi, bu ko‘pincha morfologik tahliliga asoslanadi. Bunda so‘z (gramma) va asosiy so‘z shaklining xususiyatlari aniqlanadi.



Morfologik tahlilga ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi (aniq morfologiya) har bir so‘zning xususiyatlarini o‘z ichiga olgan bitta katta lug‘at tuzishni o‘z ichiga oladi[1]. Ushbu yondashuvni amalga oshirish nisbatan oson, lekin ikkita muhim kamchilikka ega. Birinchidan, tizim faqat lug‘atdagi so‘zlarni to‘g‘ri qayta ishlaydi. Ikkinchidan, ko‘p tillarda bu lug‘at juda katta hajmga ega bo‘ladi. So‘zlarni tahlil qilishning muqobil yondashuvi (noaniq morfologiya) - bu ma’lum bir so‘z uchun uning xususiyatlari proqnoz qilinadigan qoidalar tizimidan foydalanish. Yondashuvning kamchiligi shundaki, u har doim ham natijalarning 100% aniqligini kafolatlay olmaydi.

Sintaktik tahlil jarayonida matndagi so‘zlar ketma-ketligi daraxtsimon ierarxiyaga aylanadi, bunda barglar alohida so‘zlarga, tugunlar so‘z turkumlariga, yoyslar esa so‘zlar va so‘z turkumlari o‘rtasidagi munosabatlarga mos keladi. Ushbu o‘zgartirish tilning berilgan grammatikasi asosida amalga oshiriladi, bu esa mohiyatan qat’iy belgilangan qoidalar to‘plamidir.

Matnni qayta ishlashning boshqa usullari orasida tahlil qilish ikki xil o‘rinda ishlatiladi. Bir tomonidan, jumlaning sintaktik tuzilishi so‘zlar orasidagi munosabatlarni juda aniq belgilaydi, bu bir qator amaliy dasturlarda, masalan, mashina tarjimasi yoki ma’lumot olishda muhimdir. Boshqa tomonidan, ba’zi vazifalar (masalan, to‘liq matnli qidirish yoki matnni tasniflash) sintaktik tahlilsiz va matnni chuqur tahlil qilmasdan amalga oshirilishi mumkin[2].

Ma’noni tushunishni talab qiladigan vazifalarda matnni navbatdagi qayta ishslash bog‘lovchi so‘zlarni aniqlash va bog‘lanishni aniq ifodalashdan iborat. Ushbu operatsiyani bajarishning eng oddiy usuli qoidalar tizimidan foydalanishdir.

Semantika til yoki uning biron bir birligi orqali ifodalanadigan butun ma’no-mazmunni ifodalaydi. Sifatli bajarilgan semantik tahlil tegishlicha xulosalarga olib keladi. Semantik tahlil bir xil faktning turli yo‘llar bilan ifodalanishi mumkinligini nazarda tutgan holda, bilimlarni ifodalashning har qanday usuliga, shu jumladan semantik tarmoqlardan foydalanishga asoslanishi mumkin. Bunday holda, bunday tarmoqlardagi tugunlar va ulanishlarning mumkin bo‘lgan turlarining batafsil tavsifi, shuningdek, ma’lumotni xususiy shakldan semantik tarmoqqa o‘tkazish qoidalari tizimi zarur bo‘ladi[3].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak elektron matnga dastlabki ishlov berishning klassik modeli tabiiy til va matnga ishlov berish bilan bog‘liq deyarli barcha tizimlarda qo‘llaniladi. Matnga dastlabki ishlov berish amalga oshirilgandan so‘ng ko‘rilayotgan tizimning asosiy vazifasidan kelib chiqqan holda matn kerakli shaklga keltirilishi va boshqa formatda keyingi bosqichga uzatilishi mumkin. Biroq, ishlov berishning asosiy prinsiplari va bajarilish ketma ketligi saqlanib qoladi.

Adabiyotlar

1. Akmuradov B., Khamdamov U., Elov Dj., Sultanov Dj., Narzullayev I. Organization of initial text processing in the Uzbek language synthesizer // International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT 2021). 4-6 November, Tashkent – 2021. 5p.
2. Маннинг К., Рагхаван П., Шютце Х. Введение в информационный поиск. М.: Вильямс, 2011. — 528 с.
3. Толдова С.Ю. Оценка методов автоматического анализа текста 2011–2012: синтаксические парсеры русского языка // Диалог-2012: тезисы конференции. Москва, 2012.



MATNNI ELEKTRON TARZDA IFODALASH TEKNOLOGIYALARI

Axmedova Xusniya Xusanovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent Axborot Texnologiyalari
Universiteti o'qituvchisi
Telefon: +998(93) 579 19 01
h.ahmedova86@mail.ru

Annotatsiya: Hisoblash mashinalari yordamida matnni elektron tarzda saqlash, o'zgartirish va uzatishni amalgaga oshiruvchi ko'plab vositalar mavjud. Ushbu ishda matnni elektron tarzda ifodalovchi matn muharrirlari turlari, asosiy xususiyatlari va imkoniyatlari tahlil qilingan. Matn muharrirlarida qo'llaniladigan tahrirlash yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: matn, texnologiya, Microsoft Word, matn muharriri, matn protsessori, WYSIWYG, WordPad.

Muloqot jarayonida insonlar o'z fikrlari va istaklarini turli xil harakatlar, yuz mimikasi, og'zaki va yozma nutq orqali ifodalaydilar. Asrlar davomida yozma nutq metal va toshlar, yog'och, hayvon terisi, mato va qog'oz buyumlariga turli ko'rinishdagi yozuv qurollari yordamida o'yib yoki surkab yozish orqali ifodalanib kelingan.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, elektron hisoblash mashimalarining kashf qilinishi va ommalashishi natijasida yozma nutqning elektron shakli paydo bo'ldi. Elektron hisoblash mashinalari axborotni elektron shaklda yig'ish, saqlash va unga ishlov berish imkoniyatiga ega bo'lib, ulardagi yozma nutqning elektron shakli “elektron matn” deb yuritila boshlandi. Elektron matnni yig'ish, saqlash va unga ishlov berishni amalgaga oshiradigan vositalar hozirda “elektron matn muharrirlari” deb yuritiladi. Matn muharrirlari bu elektron matn hujjatlarni yaratish va tahrirlashni amalgaga oshiruvchi dasturlar hisoblanadi. Bunday dasturlar turli operatsion tizimlar ustiga o'rnatilib elektron matn fayllarini turli formatlarda saqlash va o'zgartirish imkoniyatiga ega. Shuni unutmaslik kerakki elektron matn belgilari qanday turdag'i fayl tarkibida kelishidan qat'iy nazar bir o'zgarmas visual ko'rinishga ega bo'ladi[1].

Bugungi kunda elektron matn muharrirlarining ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularni quyidagi 3 guruhg'a ajratish mumkin:

- Satr bo'yicha ishlovchi matn muharriri;
- Joriy holat bo'yicha ishlovchi matn muharrirlari;
- Ekran matn muharrirlari.

Ishlash imkoniyatiga ko'ra birinchi guruhg'a kiruvchi matn muharrirlari matnni tartiblangan satrlar qatoriga ajratadi va har bitta satrni alohida-alohida tahrirlaydi.

Ikkinchi guruhg'a kiruvchi matn muharrirlari matnni belgilangan qismi (satr, xatboshi, sahifa) bo'yicha tahrirlaydi.

Uchinchi guruhg'a kiruvchi matn muharrirlari nisbatan keng imkoniyatlarga ega bo'lib, hozirda eng ommalashgan tahrirlash dasturlari hisoblanadi. Bunday muharrirlarda foydalanuvchi tugmachalar yoki boshqa kiritish moslamalari yordamida tahrirlash cursorlarini siljитish imkoniyati mavjud[2].

Matn muharriri - bu mustaqil kompyuter dasturi yoki dasturiy ta'minot to'plamining tarkibiy qismi bo'lib, matnli ma'lumotlarni, xususan, matnli fayllarni yaratish va o'zgartirish, shuningdek hujjatlarni chop etish uchun qo'llaniladi. Bunday muharrirlar matnli fayllar bilan interfaol rejimda ishlashga mo'ljallangan. Ular sizga matnli fayllar tarkibini ko'rishga va ularda turli xil amallarni bajarishga imkon beradi - matnni kiritish, o'chirish va nusxalash, kontekstli qidirish va almashtirish, satrlarni saralash, belgilarni ko'rish va boshqalar[3].

Ko'pchilik interfaol matn muharrirlarida tahrirlash harakatlarini avtomatlashtirish yoki matnli ma'lumotlarni maxsus usulda namoyish etish uchun mo'ljallangan qo'shimcha funktsiyalar mavjud. Ayrim matn muharrirlari dastlabki chiqish kodining (исходний код) muharrirlari, ya'ni turli xil kompyuter tillaridagi dasturlarning matnlari bilan ishlashga mo'ljallangan. Hujjat tarkibini o'zgartirishga mo'ljallangan tahrirlovchilar matn protsessorlari deb ham yuritiladi[6].

Bugungi kunda ko'plab matn muharrirlari mavjud bo'lib, eng ommalashgan matn muharrirlari



sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Microsoft Word
2. Notepade ++
3. LibreOffice
4. Notepade (Блокнот)
5. WordPad

Microsoft Word muharriri matnlarni loyihalash va formatlash va ularga uchinchi tomon ob'ektlarini (shriftlar, jadvallar, formulalar, grafikalar va boshqalar) kiritish imkoniyatining mavjudligi va WYSIWYG rejimlarining mavjudligi bilan ajralib turadi[4].

WYSIWYG - bu ingliz tilidagi “*What You See Is What You Get*” jumlasining qisqartma shakli bo‘lib “*Nimani ko‘rsang shuni olasan*” degan ma’noni anglatadi. WYSIWYG tahrirlash paytida namoyish etiladigan va qog‘oz hujjat, veb-sahifa yoki taqdimot ko‘rinishidagi yakuniy mahsulotga iloji boricha yaqinroq ko‘rinishdagi ilovalar yoki veb-interfeyslar xususiyatlarini ifodalashga imkon beruvchi funksiyalar jamlanmasi deyish mumkin[5].

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni biladiganlar uchun WYSIWYG jamlanmasini tushuntirish uchun quyidagi 1-rasmni keltirishning o‘zi kifoya qiladi.



1-rasm. Microsoft Word matn muharririning WYSIWYG jamlanmasi

Mamlakatimizdagи aksariyat shaxsiy kompyuterda elektron matn bilan ishlovchilar Microsoft Windows operatsion tizimidan va mos ravishda Microsoft Office Word matn muharriridan foydalanishadi. Chunki u yuqorida aytib o‘tilganidek, funksional va grafik jihatdan bir qator qulayliklarga ega.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda mavjud elektron matn muharrirlari juda keng imkoniyatlarga ega. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas ravishda bunday tizimlar ham yanada takomillashib bormoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llash asosida elektron matnni ma’no jihatidan o’rganish va tahlil qilishni amalga oshiruvchi yangi vositalarning paydo bo’lishi matn muharrirlari imkoniyatlarining yanada kengayishiga olib kelmoqda. Yaratilayotgan yangi texnologiyalar foydalanuvchilarga yanada qulayroq interfeysni taqdim qilish hamda axborotning butunligi va xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ю. В. Балакина “ Электронный текст: принципиально новый тип текста?” Вестник Волгоградского государственного университета. 2016. Т.15. № 3. С. 17-27.
2. А. М. Цитульский, А. В. Иванников, И. С. Рогол “Интеллектуальный анализ текста”, StudNet 2020. №6. С. 476-483.
3. U.Khamdamov, M. Mukhiddinov, O. Djuraev, A. Mukhamedaminov “A novel method for extracting text from natural scene images and TTS”, “European science review” scientific journal, Premier publishing, Vienna – 2018. № 11-12. Vol. 1. -P. 30-33
4. К. Менninger “История цифр. Числа, символы, слова.” М.: ЗАО Центрполиграф, 2011. 543 с.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/WYSIWYG>
6. <https://lifehacker.ru/tekstovye-redaktory>



SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH

Djumabayev Dilmurad Kutlimurotovich,
Xusniddinov Faxriddin Shamsiddinovich,
Do'stmurodov Eldor Eshbobo o'g'li,
Valixonov Nuriddin Kamoliddin o'g'li
Toshkent Davlat Transport Universiteti, “Tabiiy fanlar” kafedrasи

Fan-texnika taraqqiyoti shamol quvvatidan elektr energiyasi olish imkonini ham berdi. Bu boradagi ishlar o'tgan asrdayoq boshlab yuborilgan bo'lsa ham dunyoda shamol elektr stansiyalari qurilishiga endi e'tibor kuchaymoqda. Hozir 55 mamlakatda shamol elektr energiyasi ishlab chiqarilayapti. Bu borada ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiq. Shamol energiyasidan foydalanish allaqachon energetika sohasining muhim tarmog'iga aylangan. MDH davlatlari orasida Belarus respublikasida ham shamol quvvatidan elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish choralar ko'rilmoxqda.

Yurtimizda muqobil energiya manbalari qatorida shamol quvvatidan foydalanish borasida ham muayyan darajada izlanishlar olib borilmoqda. Iqtidorli yoshlarimizning ba'zi vakillari yaratgan shamol elektr uskunalarbu fikrimizga dalil bo'la oladi.

Shuni aytish kerakki, shamol elektr energiyasi ishlab chiqarish kam xarajatli, ekologik jihatdan xavfsiz, istiqboli porloq bo'lsa ham faqat ana shu yo'l bilan olingen energiya bilan talab va ehtiyojni qondirishning mutlaqo imkonini yo'q. Muqobil energiyaning bu manbai qo'shimcha elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi, xolos. Chunki har doim ham shamol bo'lavermaydi. Qolaversa ko'pgina joylarda shamolning tezligi talabga javob bermaydi. Shu sababli mutaxassislar shamol elektr stansiyalarini boshqa muqobil stansiyalar bilan birga, navbatil bilan ishlashini taklif qilmoqdalar.

Yaxshi bilasizki, shamol kuchli va kuchsiz, yoqimli va yoqimsiz, zararli va bezarar bo'ladi. Shunday xususiyatlariga ko'ra nomlanishi ham turlicha: shabada, shabboda, yel, nasim, sabo, shamol, dovul, bo'ron, quyun, garmsel, izg'irin... Shabboda, nasim, sabo she'riy nutqqa xos bo'lib, yengil, huzurbaxsh shamol ma'nosini anglatadi. Sabo faqat tong paytida esadigan mayin yel. Dovul va bo'ron nihoyatda kuchli shamol bo'lib, foydasidan zarari ko'proq: ba'zan dovdaraxtlarni sindiribgina qolmay, ildizi bilan qo'porib tashlaydi, binolarning tom yopilmalarini uchirib ketadi. Bo'ronning o'ta vayronagarchilik keltiradigan xillari ham bor. Garmsel va izg'irin esa qarama-qarshi ma'noli so'zlardir. Biri jazirama payti gohida bir necha kunlab chang-to'zon bilan davom etadigan, kishining tinka-madorini oladigan, ekinlarni so'litib, qovjiratib qo'yadigan issiq shamolni anglatadi. Ikkinchisi esa ayozli kunlar achchiq sovug'i butun vujudingizni qaqqhatib yuboruvchi, ignaning ko'ziday teshikdan tuyaday sovuqni olib kiruvchi yoqimsiz turidir.

Darhaqiqat, shamol tizginsiz kuch, juda katta tabiiy energiya manbai. Bu manba vaqtiga vaqtin bilan doim yangilanib turadi, shu sababli bitmas-tuganmasdir. Undan ham mexanik, ham elektr, ham issiqlik energiyasi hosil qilish mumkin. Qadimdayoq ko'pgina mamlakatlarda qurilgan shamol tegirmonlarining ishlashi mexanik energiyaga asoslangan.





Bizning viloyatimizda ham shamol elektr qurilmalaridan foydalanish imkoni bormi? Bor. Vohamiz hududining ba’zi joylarida shamol kuchli va davomli bo’ladi. Muborak, Kasbi, Mirishkor va boshqa tumanlarda yoz oylari, ba’zan qishda ham shamol qanday bo’lishini ko’pchilik yaxshi biladi. Yaqinda O’rtabuloqda joylashgan Is’hoq ota ziyoratgohiga borganimizda mayin qumlarni uchirib, chang-tuzon bilan ana shunday shamol esardi. Bu yerlar nafaqat qazilma yoqilg’i zahiralariga, balki shamol kabi muqobil energiya manbaiga ham boyligini his etdim o’shanda. [1]

Viloyatimizning tog’li mintaqasi ham shamol elektr qurilmalari o’rnatish imkoniyatlardan mahrum emas. Tog’u toshlar jazirama issiqda qizib ketgach, uch kun, besh-olti kun, ba’zan bundan ham ko’proq kuchli shamol esadigan paytlar bo’lib turadi. Masalan, Zarafshon tog’ tizmasidan ikki yo’nalish bo’yicha - biri Makrid, ikkinchisi Qaynar tomondan esadigan shamol oqimlari bor. Shahrisabzga mayin shabada holatida yetib boradigan bu oqimlar Kitob tumanining Chechak, Boshchil, Olaqo’lik, Urus qishloq tomonlarida kishini uchirib yuborgudek kuchga ega bo’ladi. Misoli bo’ronning o’zi. Avjiga chiqqanda dov-daraxtlarni sindirib, elektr simlarini uzib yuboradi. Ko’saklar muddatidan oldin ochilib qoladi. Vaholanki, turgan-bitgani koni zarar bu shamolning mislsiz quvvatidan foydalanish ham mumkin. Qariyb bir haftadan buyon kuchli shamol tinmayotgan kunlari bir do’stim chin-hazil aralash shunday deb qoldi:

- Agar shamol elektr stansiyasi qurilsa, shu kunlarda bemalol bir yilga yetadigan elektr energiyasini yig’ib olsa bo’ladi! [2]

Xullas shamol ko’p esadigan joylarda tajriba tariqasida bo’lsa ham uncha katta bo’lmagan shamol elektr qurilmalari o’rnatilib, qay darajada samara berishi sinab ko’rilsa, yomon bo’lmasdi. Agar shunday uskunalar sinovdan muvaffaqiyatli o’tsa, rezerv energiya manbaiga aylanishi, an’anaviy usulda ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatini tejashga xizmat qilishi mumkin.

Odamlar qadim zamonlardan shamol quvvatidan imkoniyatlari darajasida foydalanib kelishgan. Bundan keyin ham shunday bo’lib qolishiga shubha yo’q. Faqat endilikda fantexnika taraqqiyoti tufayli imkoniyatlar doirasi kengaygan.

Shamol energiyasi qurilmalari

Havo oqimi ham, istalgan harakatlanuvchi jism ham harakat energiyasiga ega bo’ladi. Bu kinetik energiya shamol g’ildiragi yoki boshqa ishchi organ yordamida mexanik energiyaga o’zgartiriladi.

Shamol qurilmalarining vazifasiga ko’ra mexanik energiya ijrochi mexanizmlar (generatorlar, kompressorlar, elektrolizlar va boshqalar) yordamida elektr, issiqlik, mexanik, shuningdek, siqilgan havo energiyasiga o’zgartirilishi mumkin. Havo oqimi kinetik energiyasini mexanik energiyaga o’zgarishi uchun turli turdagи shamol dvigateellaridan foydalanish mumkin.



Havo oqimi kinetik energiyasini elektr energiyaga o’zgartirish uchun masalan, “Whisper”, “Acro-Cruft” turdagи shamol energiyasi qurilmalaridan foydalaniladi.

Shamol energiyasini elektr energiyasiga o’zgartiradigan asosiy mexanizm shamol turbinasi hisoblanadi. U boshqa turbinalarga qaraganda ko’proq detallar soniga ega. Shamol vtulkaga mahkamlangan parraklarni aylantiradi va ular birgalikda aylanadi. Shunday qilib, parraklar va vtulka birgalikda rotorni tashkil qiladi. Shuningdek, turbinani parraklarini aylantiradigan va to’xtatadigan kontaktlar mavjud. Generator aylanadi va elektr energiyani ishlab chiqaradi.



Generator, kontroller va boshqa qurilmalar parraklar orqasidagi qutiga joylashtiriladi. Anemometr shamol tezligini aniqlaydi va bu axborotni kontrollerga uzatadi.[3]

Shamolning tezligi 15-23 km/soatga yetganida shamol agregati aylana boshlaydi, tezlik 100 km/soatda ortganida mexanizmni shikastlanishlardan saqlash uchun ular avtomatik ravishda to'xtaydi. Shamol agregatlarining ba'zi bir modellari shamol kuchiga bog'liq bo'lмаган holda o'zgarmas tezlik bilan aylanadi. Ba'zi bir yangi modellarning tezligi shamol bilan aylanadi. Ba'zi bir yangi modellarning tezligi shamol tezligi bilan birga o'zgaradi, bu ularni samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Shamol agregatlarida asosan 2 yoki 3 ta parraklar bo'ladi. Katta bo'lмаган turbinalar 100 kVt gacha elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Ularni fotoelektr panellar bilan ishlatish mumkin. Bunday “uy shamol agregati” ning parraklari 2-8 m o'lchamga ega hamda 40 m lar atrofidagi balandlikka joylashtiriladi va u kichik korxonani elektr energiyasi bilan ta'minlashi mumkin. [4]

Katta shamol agregatlaridan 750 kVt dan 2 MVt gacha quvvatli turbinalar keng tarqalgan bo'lib, ular ham shamol elektrostansiyalari joylashtiriladi.

Katta quvvatli megovatli turbinalar katta o'lchamlarga ega bo'lib, ularning yangi modellari 2 dan 5 MVt gacha quvvatli elektr energiyasini ishlab chiqarishga qodir. Kuchli dengiz shamoli aylantira olishi uchun ularni odatda qirg'oqqa yaqinroqdagi suvga joylashtiriladi. Bunday shamol agregatlari hozirda Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya va boshqa mamlakatlarda ishlatilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Введение в нанотехнологии. - <http://nano-edu.ulsu.ru/w/index.php>
2. C. Goodall, Ten technologies to fix energy and climate, Profile books, 2012.
3. Пугаченко, Н. И. Пугаченко// Наноматериалы и нанотехнологии: проблемы и перспективы: "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 May 2020 319 www.openscience.uz
4. Hessian Ministry of Economy, Transport, Urban and development (2008), Application of nano-technologies in the Energy Sector (http://www.hessen-nanotech.de/mm/NanoEnergy_web.pdf).
5. Conference Paper • *Открытый доступ The impact that crushed rubber can have on the quality of bitumen and asphalt concrete* Sidikova, T., Barxanadjyan, A., Hakimov, R., Sabirova, D., Mirsaatov, R. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering this link is disabled, 2020, 883(1), 012198.



DEVELOPMENT STAGES OF A SIMULATOR BASED ON A PROGRAMMABLE LOGIC CONTROLLER

Rakhmonov Ikromjon Usmonovich

doctor of technical sciences, docent, Head of the
"Power Supply" department, Tashkent State

Technical University

Phone:+998909458700

ilider1987@yandex.ru

Kurbanov Nurbek Nurullo ugli

Phd student of the Department of "Poweral Supply",
Tashkent State Technical University

Phone:+998336270510

nurbek.qurbanov@tdtu.uz

Saburov Salamat Sarsenbaevich

assistant, Karakalpak State University;
Nukus, Republic of Uzbekistan

Phone:+998336270510

saburov.salamat@kmu.uz

ABSTRACT. Simulators based on Programmed Logic Controllers (PLCs) are widely used in various fields such as industrial automation, robotics, and manufacturing. These simulators provide a safe and cost-effective way to train operators and engineers, as well as to test and troubleshoot PLC-controlled systems.

KEY WORDS: Programmed Logic Controllers (PLCs), simulator, automation, software product.

